

**Umumta'lim maktabining 2023-2024- o'quv yili kimyo fanini o'quvchilarining
kimyo fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test, savol, masala va
topshiriqlar varianti**

11-__sinf o'quvchisi _____

F.I.SH.

**Kimyoviy reaksiya tezligi bo'yicha masalalar
4-amaliy ish.**


O'quvchi to'plagan umumiyl ball: _____ (maksimal ball -20)

III Chorak 5-BSB (II variant)

1. Reaksiya tezligi iqtisodiy nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. Xarajatlarni kamaytirish uchun quyidagi jarayonlardan qaysi birini tezlashtirish va qaysi birini sekinlashtirish kerak? [**2 ball**]



1. Etilenning polimerlanishi



2. Atmosferada xlorf toruglerodlarning parchalanishi



3. Sutdan tvorog olish

- A. 1-tezlashtirish, 2-tezlashtirish, 3-sekinlashtirish, 4-sekinlashtirish
- B. 1-sekinlashtirish, 2- sekinlashtirish, 3-tezlashtirish, 4- sekinlashtirish
- C. 1-tezlashtirish, 2- sekinlashtirish, 3-sekinlashtirish, 4-sekinlashtirish



4. Metall korroziyasi

D. 1-tezlashtirish, 2- sekinlashtirish, 3- tezlashtirish, 4-sekinlashtirish

2. Berilgan gaplarni kalit so‘zlardan foydalanib to‘ldiring. [**4 ball**]

Harorat qanchalik bo‘lsa, reaksiya shunchalik bo‘ladi.
Yuqori harorat molekulalarning tezroq harakatlanadigan molekulyar kinetik energiyasiga olib keladi, bu reaktiv molekulalar o‘rtasida
to‘qnashuvlarga yordam beradi va shuning uchun reaksiyani

*Kalit so‘zlar: yuqori, quyi, tez, sekin, ko‘proq, kamroq, tezlashtiradi, sekinlashtiradi
Kalit so‘zida ortiqcha so‘zlar berilgan. Kalit so‘zdan bir necha bor foydalanish
mumkin.*

3. $H_2+J_2=2HJ$ reaksiyada harorat har $20^{\circ}C$ ga oshganda reaksiya tezligi 2 marta ortadi. Agar reaksiyaning harorati $10^{\circ}C$ dan $70^{\circ}C$ gacha oshirilganda reaksiyaning tezligi qanday o‘zgaradi? [**5 ball**]

Berilgan:

Yechish:


4. Reaksiyaning o‘rtacha tezligi $0,003 \text{ mol/(l}\cdot\text{sek)}$ bo‘lganda 2 daqiqa davomida boshlang‘ich modda konsentratsiyasi (mol/l) qanchaga o‘zgaradi? [**5 ball**]

Berilgan:

Yechish:

5.

Grafikni o‘rganing va katalizator katalitik reaksiyalarda qanday vazifani bajarishini tushuntiring? [4 ball]



Javob:

| Nº | Asosiy ko‘nikma va faoliyat usullari | Ball | To‘g‘ri javob | Deskriptor |
|----|--|------|---------------|------------|
|----|--|------|---------------|------------|

| | | | | |
|---|---------------------|---|--|--|
| 1 | Bilish va tushunish | 2 | D | To‘g‘ri javob uchun 2 ball |
| 2 | Qo‘llash | 4 | Harorat qanchalik yuqori bo‘lsa, reaksiya shunchalik tez bo‘ladi. Yuqori harorat molekulalarning tezroq harakatlanadigan molekulyar kinetik energiyasiga olib keladi, bu reaktiv molekulalar o‘rtasida ko‘proq to‘qnashuvlarga yordam beradi va shuning uchun reaksiyani tezlashtiradi | Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball Jami: 4 ball |
| 3 | Qo‘llash | 5 | Berilgan: $t_1=10^{\circ}\text{C}$ $t_2=70^{\circ}\text{C}$ $\gamma = 2$ $V_2 / V_1 = ?$ Yechish. 1. Reaksiya tezligini haroratga bog‘liqligini topish (Vant-Gorff) formulasidan foydalanamiz: $V_1=V_0 \cdot \gamma^{\Delta t / 10}$ da 10 o‘rniga 20 qo‘llaniladi. Benlganlarni ifodallasak $t_1=10^{\circ}\text{C}$, $t_2=70^{\circ}\text{C}$, $\gamma = 2$ bo‘lsa, formuladan foydalanib, jarayon uchun kimyoviy reaksiya lezligini topamiz $V_2 / V_1 = \gamma^{t_2-t_1 / 20} = 2^{70-10 / 20} = 2^3 = 8$ Demak, 8 marta tezlik oshadi. | a)agar masala to‘liq va to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa; 5 ball b)agar masala to‘liq yechilsa, lekin qisman xatolar bo‘lsa; 4 ball c)masalalar yechish yo‘li to‘g‘ri, lekin hisobda xatolar bo‘lib, tartibga e’tibor berilmasa; 3 ball d) faqat formula to‘g‘ri berilgan bo‘lsa; 2 ball k)agar masala umuman noto‘g‘ri ishlangan, bo‘lsa; 0 ball |
| 4 | Qo‘llash | 5 | Berilgan: $\Delta C = 0,003 \text{ mol/(l·sek)}$ $t = 120 \text{ s}$ $V = ?$ Yechish. $\Delta C = t \cdot V = 0,003 \text{ mol/(l·sek)} \cdot 120 \text{ sek} = 0,36$ yoki $3,6 \cdot 10^{-1} \text{ mol/l}$ | a)agar masala to‘liq va to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa; 5 ball b)agar masala to‘liq yechilsa lekin qisman xatolar bo‘lsa; 4 ball c)masalalar yechish yo‘li to‘g‘ri, lekin hisobda xatolar bo‘lib, |

| | | | | |
|---|--------------------|---|---|---|
| | | | | tartibga e'tibor berilmasa; 3 ball d) faqat reaksiya tenglamasi berilgan bo'lsa; 2 ball k)agar masala umuman noto'g'ri ishlangan, bo'lsa; 0 ball |
| 5 | Tahlil va mulohaza | 4 | Katalizatorlar moddalarni faollanish energiyasini kamaytirib beradi. Natijada energiya kam bo'lsa ham moddalar faollashadi va tezda reaksiyaga kirishadi. Natijada reaksiya tezligi oshadi. | To'g'ri javob uchun 4 ball |